

IJTIMOIIY-IQTISODIIY RIVOJLANTIRISHDA HUDUDIIY BOSHQARUV TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIIY OMILLARI

Mahmudov Bahriddin Jo'rayevich

iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Biznesni boshqarish fakulteti dekani,

Namangan davlat texnika universiteti

presentutor@gmail.com,

tel: +998945065110

Annotatsiya: Maqolada hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish tizimini shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy omillari chuqur tahlil qilingan. O'zbekiston sharoitida hududlarni boshqarish tizimini takomillashtirishning dolzarb jihatlari ko'rib chiqilgan hamda mavjud muammolar ilmiy jihatdan baholangan. Tadqiqot davomida hududiy boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi tashkiliy va iqtisodiy omillar, jumladan, davlat boshqaruv organlarining vakolatlarini taqsimlash, boshqaruv mexanizmlarini optimallashtirish, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash hamda mahalliy boshqaruv organlarining mustaqilligini kengaytirish kabi jihatlari asosiy e'tiborga olingan. Shuningdek, hududiy iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan me'yoriy-huquqiy va institutsional baza holati tahlil etilgan. Olib borilgan tahlillar natijasida, hududlarni boshqarishda mavjud iqtisodiy va tashkiliy muammolarni bartaraf qilish, resurslardan samarali foydalanish mexanizmlarini yaratish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: hududiy boshqaruv, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, tashkiliy-iqtisodiy omillar, boshqaruv samaradorligi, moliyaviy resurslar, davlat boshqaruvi, institutsional omillar, raqobatbardoshlik, mahalliy boshqaruv organlari, iqtisodiy mexanizmlar, boshqaruv tizimini takomillashtirish.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish masalalari tobora murakkablashib, dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, globalashuv sharoitida iqtisodiy resurslarning notekis taqsimlanishi va hududlararo rivojlanishdagi nomutanosibliklar xalqaro iqtisodiy tashkilotlar tomonidan jiddiy muammo sifatida qayd etilmoqda. Jahon banki va BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) hisobotlariga ko'ra, hududiy rivojlanishning samarali boshqaruvi iqtisodiy barqarorlik va jamiyatning ijtimoiy farovonligini oshirishning asosiy sharti sifatida belgilangan [1]. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi hududiy boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi "Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan hududlar rivojlanishining strategik rejalashtirish tizimini takomillashtirishga urg'u berildi [2]. Ushbu farmonda mahalliy boshqaruv organlarining iqtisodiy vakolatlarini kengaytirish va hududlar o'rtasidagi iqtisodiy farqlarni qisqartirish asosiy maqsad qilib belgilandi. Shuningdek, xalqaro amaliyotda Yevropa Ittifoqi va OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) tomonidan hududiy rivojlanish siyosatida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning samaradorligini oshirish yo'nalishida tavsiyalar ishlab chiqilgan. OECD hisobotlariga ko'ra, hududiy rivojlanishni boshqarish tizimida samarali institutsional muhitni yaratish va moliyaviy

resurslarni optimallashtirilgan tarzda taqsimlash orqali iqtisodiy natijadorlikka erishish mumkinligi qayd etilgan [3].

Mamlakatimiz qonunchiligida 2021-yil 29-dekabrda "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Prezident farmonida ham hududiy rivojlanish va mahalliy boshqaruv organlarining vakolatlarini kengaytirish, iqtisodiy mustaqilligini oshirishga alohida urg'u berilgan. Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi "Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini strategik rejalashtirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ham bu yo'nalishdagi muhim tashkiliy-iqtisodiy jihatlarni tartibga solishga xizmat qilmoqda [4].

Ilmiy tadqiqotlar mazkur yo'nalishdagi muammolarni ilmiy jihatdan asoslashga yo'naltirilgan. Ayniqsa, iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlash va hududlararo tengsizligini kamaytirishga oid ilmiy ishlar soni oshmoqda. Shunga qaramay, bugungi kunda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish tizimidagi mavjud tashkiliy-iqtisodiy omillarni kompleks tarzda ilmiy tahlil qilish va yangi yechimlar ishlab chiqishga ehtiyoj yuqori bo'lib qolmoqda. Mazkur maqola aynan shu dolzarb muammoning ilmiy jihatdan asoslanishi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga yo'naltirilgan..

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish tizimini shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy omillari xalqaro va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan keng qamrovli va kompleks tarzda tadqiq etilmoqda. Mazkur sohada iqtisodiy aglomeratsiya nazariyasining asoschilaridan biri hisoblangan Pol Krugman iqtisodiy klasterlashuvning hududiy iqtisodiyotdagi ahamiyatini chuqur tahlil qilib, aglomeratsiyalar hududlarning raqobatbardoshligini oshirish va resurslardan foydalanish samaradorligini yaxshilashga yordam berishini asoslagan [5]. Maykl Porter o'zining raqobatbardoshlik nazariyasida klasterlarning shakllanishi va rivojlanishini hududiy iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida ko'rsatgan. Uning fikriga ko'ra, klasterlar hududlarning innovatsion rivojlanishiga ham turtki beradi [6].

OECD hisobotlarida hududiy rivojlanishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning samaradorligi asosan institutsional muhitning holatiga va davlat boshqaruv tizimidagi vazifalar va vakolatlarning aniq taqsimlanishiga bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. OECD ekspertlari moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash orqali iqtisodiy natijadorlikni oshirish mumkinligini ilmiy asoslashgan [7]. BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) hisobotida ham mahalliy boshqaruv organlarining iqtisodiy va institutsional mustaqilligini kengaytirish zarurligi ta'kidlangan bo'lib, bu omillar hududlarning barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan [8].

Mahalliy tadqiqotchilardan Ergashxodjaeva va boshqalar O'zbekiston hududlarida iqtisodiy rivojlanish va mavjud farqlarni bartaraf qilish bo'yicha iqtisodiy mexanizmlarning rolini batafsil o'rganib chiqishgan. Ular davlat va mahalliy boshqaruv organlari o'rtasidagi funksional vazifalar taqsimoti samarali boshqaruvning kaliti ekanligini ta'kidlashgan. G'afurov esa institutsional asoslarni mustahkamlash orqali O'zbekistonda hududiy boshqaruv tizimini optimallashtirish zarurligini chuqur

tahlil qilgan va bu orqali iqtisodiy resurslardan yanada samarali foydalanish mumkinligini qayd etgan [9].

Moliyaviy resurslarni hududlararo taqsimlash mexanizmlarining ilmiy tahliliga katta e'tibor qaratgan Baxtiyor Karimov mahalliy byudjetlarning moliyaviy mustaqilligini oshirish hududiy rivojlanish uchun zarur shart ekanligini ta'kidlagan. Abduraxmonov va Ismailov esa moliyaviy resurslarni boshqarishda institutsional va tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirish zarurligini qayd etib, bu jarayon hududiy iqtisodiy farqlarni qisqartirishga yordam berishini isbotlashgan [10].

Rossiyalik iqtisodchilar Bobkov va Tumanov hududiy rivojlanish jarayonida institutsional boshqaruv mexanizmlarini mukammallashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini tadqiq qilishgan. Ularning fikriga ko'ra, har bir hududning iqtisodiy xususiyatlarini inobatga olib qarorlar qabul qilish zarur [11].

QSh iqtisodchisi Brayan Roberts hududiy iqtisodiy boshqaruv tizimida innovatsion mexanizmlarning rolini batafsil o'rganib, bu mexanizmlar hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga va raqobatbardoshligini oshirishga yordam berishini ilmiy asoslagan. Xitoylik olim Lin davlat-xususiy sherikchilik mexanizmini rivojlantirish orqali hududlararo iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash mumkinligini ta'kidlagan va bu mexanizm iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirishning samarali vositasi ekanligini ilmiy jihatdan asoslagan [12].

Mahalliy tadqiqotchilar Yo'ldoshev va Axmedov O'zbekistonda strategik rejalashtirish mexanizmlarini yanada chuqurroq tahlil qilib, hududlarning iqtisodiy rivojlanishi strategik boshqaruv tizimlarining mustahkamlanishi bilan bog'liqligini ko'rsatganlar. Yevropalik olimlar De Muro va Tridico mahalliy boshqaruv samaradorligini oshirish uchun ijtimoiy kapital va mahalliy jamoatchilik faolligining muhimligini ta'kidlaydi va buni hududiy boshqaruv tizimini shakllantirishning muhim omillaridan biri sifatida qayd etishadi [13].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologiyasi ilmiy asoslangan, kompleks va tizimli yondashuvlarga asoslangan bo'lib, nazariy va empirik metodlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqot jarayonida umumiy ilmiy metodlar, jumladan, tizimli tahlil, mantiqiy umumlashtirish, deduktiv va induktiv xulosalash usullaridan keng foydalanilgan. Tadqiqot nazariy-uslubiy jihatdan mavjud ilmiy va iqtisodiy adabiyotlarning chuqur tahlilini o'z ichiga olgan bo'lib, bunda xorijiy va mahalliy manbalarning qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Mazkur jarayonda nazariy modellashtirish va konseptual asoslash usullari qo'llanilgan bo'lib, xalqaro miqyosda tan olingan tadqiqotlar, jumladan, Pol Krugman, Maykl Porter va boshqa mashhur iqtisodchilar tomonidan ishlab chiqilgan nazariy yondashuvlar asos qilib olingan. Tadqiqotning amaliy jihatlarini ochib berish uchun empirik metodlar, ayniqsa, statistik ma'lumotlarni qayta ishlash va iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish metodlari keng qo'llanilgan. Mazkur bosqichda qiyosiy tahlil, korelyatsion-regression tahlil usullari va ekonometrik modellashtirish usullari qo'llanilib, O'zbekiston Respublikasining hududlararo iqtisodiy rivojlanish bo'yicha statistik ma'lumotlari asosida ilmiy xulosalar chiqarilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Namangan viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ilmiy asoslangan tarzda baholash uchun hududning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari, jumladan, yalpi hududiy mahsulot hajmi, investitsiya jalb qilish darajasi, bandlik va ishsizlik ko'rsatkichlari hamda mahalliy byudjet ijrosi dinamikasi keng qamrovli tarzda tahlil qilindi. Tadqiqot davomida viloyatning iqtisodiy rivojlanishidagi mavjud tendensiyalar aniqlanib, ushbu jarayonlarga ta'sir qiluvchi tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv tizimining samaradorligi va uning rivojlanish dinamikasi ilmiy usullar yordamida asoslandi. Shuningdek, amalga oshirilgan kompleks tahlillar asosida viloyatning iqtisodiy salohiyati, moliyaviy barqarorligi, bandlik darajasidagi o'zgarishlar hamda investitsion jozibadorligi bo'yicha so'nggi besh yillik natijalar chuqur yoritilgan holda ilmiy va amaliy jihatdan baholandi.

Namangan viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini batafsil baholash uchun 2020–2024 yillar davomidagi yalpi hududiy mahsulot, investitsiyalar, bandlik hamda mahalliy byudjet ijrosi kabi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar chuqur tahlil qilindi. Quyidagi jadvallar orqali bu ko'rsatkichlarning besh yillik dinamikasi tahlil qilinib, boshqaruv tizimi samaradorligiga oid xulosalar ilmiy asosda ishlab chiqildi.

1-jadval.

Namangan viloyati yalpi hududiy mahsuloti (YaHM) hajmi va o'sish sur'atlari⁵⁶

Yillar	YaHM hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati (%)
2020	32,500	5.2
2021	34,650	6.6
2022	37,400	7.9
2023	40,120	7.3
2024	43,850	9.3

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Jadvaldagi ko'rsatkichlarning tahlilidan kelib chiqsak, Namangan viloyatining yalpi hududiy mahsuloti (YaHM) 2020-yildagi 32,5 trillion so'mdan boshlab, izchil o'sish dinamikasini namoyon etgan holda, 2024-yilga kelib 43,85 trillion so'mgacha yetganligi qayd etildi. Ushbu davr mobaynida YaHMning o'sish sur'atlari ham barqaror ortib borgan bo'lib, eng yuqori ko'rsatkich 2024-yilda 9,3 foizga teng bo'lgan. Bunday yuqori natijalarga erishilishining asosiy omillari sifatida hududda iqtisodiy faoliyatning faollashuvi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining diversifikatsiyasi, investitsiyalar hajmining oshishi hamda mahalliy boshqaruv tizimining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlaridan samarali foydalanilishi kabi omillarni ko'rsatish mumkin.

2-jadval.

Namangan viloyatida investitsiya jalb qilish ko'rsatkichlari (2020-2024)⁵⁷

Yillar	Jami investitsiyalar (mlrd. so'm)	Xorijiy investitsiyalar ulushi (%)
2020	6,750	22.5
2021	7,940	24.7

⁵⁶ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari

⁵⁷ Namangan viloyati Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi ma'lumotlari

2022	9,300	26.8
2023	10,850	29.3
2024	13,400	32.5

Manba: Namangan viloyati Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Tahlillar natijasida Namangan viloyatiga jalb etilgan investitsiyalar hajmida so‘nggi besh yilda jiddiy o‘shish kuzatilgani aniqlandi. Xususan, viloyat bo‘yicha umumiy investitsiyalar miqdori 2020-yildagi 6,75 trillion so‘mdan boshlab, 2024-yilga kelib 13,4 trillion so‘mgacha yetganligi qayd etildi. Shuningdek, mazkur davrda xorijiy investitsiyalarning umumiy investitsiyalar tarkibidagi ulushi 22,5%dan 32,5%ga oshgani e’tiborga loyiqdir. Xorijiy investitsiyalar hajmi va ulushidagi bunday sezilarli o‘shish, hududning xalqaro investorlar uchun jozibadorligining ortib borayotganidan dalolat beradi.

Jadval 3.

Namangan viloyatida bandlik va ishsizlik ko‘rsatkichlari (2020-2024)⁵⁸

Yillar	Band aholi soni (ming kishi)	Ishsizlik darajasi (%)
2020	1,125	10.4
2021	1,157	9.8
2022	1,195	9.1
2023	1,240	8.5
2024	1,285	7.9

Manba: Namangan viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Bandlik ko‘rsatkichlari tahlili natijasiga ko‘ra, Namangan viloyatida band aholining soni so‘nggi besh yil davomida barqaror o‘shish tendensiyasini namoyon etdi. Jumladan, 2020-yilda 1,125 ming kishini tashkil etgan band aholi soni, 2024-yilga kelib 1,285 ming kishiga yetib, jami 160 ming kishiga oshganligi qayd etildi. Shuningdek, ishsizlik darajasi ham ushbu davr ichida bosqichma-bosqich kamayib borgan bo‘lib, 2020-yildagi 10,4 foizlik ko‘rsatkich 2024-yilda 7,9 foizgacha pasaydi. Bu ijobiy o‘zgarishlar, avvalo, hududiy boshqaruv organlari tomonidan amalga oshirilgan bandlikni ta’minlashga qaratilgan strategik tadbirlar, jumladan, yangi ish o‘rinlarini yaratish, tadbirkorlik va kichik biznesni rag‘batlantirish hamda aholini kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlash mexanizmlarining samarali qo‘llanilishi bilan bog‘liqdir.

Jadval 4.

Namangan viloyatida mahalliy byudjet ijrosi ko‘rsatkichlari (2020-2024)

Yillar	Byudjet daromadlari (mlrd. so‘m)	Byudjet xarajatlari (mlrd. so‘m)	Byudjet profisiti/defisiti (%)
2020	2,450	2,380	+2.94
2021	2,740	2,660	+3.00
2022	3,100	3,000	+3.33
2023	3,520	3,380	+4.14
2024	4,000	3,800	+5.26

⁵⁸ Namangan viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi ma’lumotlari

Manba: Namangan viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Mahalliy byudjet ijrosi bo'yicha amalga oshirilgan tahlillar Namangan viloyatida so'nggi besh yil davomida byudjet daromadlari va xarajatlarining izchil ortib borayotganini ko'rsatdi. Ayniqsa, byudjet profisitining muntazam ravishda o'sib borishi e'tiborga molikdir; ushbu ko'rsatkich 2024-yilga kelib eng yuqori 5,26% darajasiga yetgan. Bu holat mahalliy iqtisodiy boshqaruv tizimi tomonidan moliyaviy resurslarni samarali boshqarish hamda byudjet intizomini mustahkamlash bo'yicha olib borilgan strategik chora-tadbirlarning natijasidir. Shuningdek, mazkur natijalar viloyat moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan siyosatning ilmiy asoslangan va samarali ekanligini yaqqol tasdiqlaydi.

Ayni paytda, texnologik jihatdan yetarli rivojlanmagan logistika markazlarida mahsulot sifati tez buzilishi, narxlarning tebranishiga, resurslarning isrof bo'lishiga va ekologik zararlarning ortishiga olib kelmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish uchun logistika tizimini hududlar kesimida diversifikatsiya qilish, mahsulotlarni avtomatlashtirilgan monitoring orqali nazorat qilish tizimlarini joriy etish, sovutkichli yetkazib berish zanjirlarini rivojlantirish va "raqamli logistika" texnologiyalaridan bosqichma-bosqich foydalanish zarur. Bunday chora-tadbirlar orqali mahsulot sifatini saqlash, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash mumkin bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot Namangan viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida hududiy boshqaruv tizimini shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy omillarini ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilib, quyidagi xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga imkon berdi:

Birinchidan, so'nggi besh yil davomida Namangan viloyatining yalpi hududiy mahsuloti (YaHM) hajmida sezilarli o'sish kuzatildi (32,5 trillion so'mdan 43,85 trillion so'mgacha), bu esa viloyatda iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish bo'yicha qo'llanilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning samaradorligini ko'rsatadi. Ushbu ijobiy tendensiyani yanada mustahkamlash uchun mahalliy tadbirkorlik muhitini yaxshilash, iqtisodiy faoliyatning diversifikatsiyasini kengaytirish hamda raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni yanada kengroq qo'llash zarur.

Ikkinchidan, viloyatning investitsion jozibadorligi sezilarli darajada oshganligi aniqlandi (xorijiy investitsiyalar ulushi 22,5% dan 32,5% ga oshdi). Investitsiyalarni yanada ko'paytirish va sifatini oshirish uchun xorijiy investorlar bilan hamkorlikni chuqurlashtirish, investitsion muhitni yaxshilashga yo'naltirilgan maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini kengaytirish va investitsiyalarni himoya qilishning xalqaro standartlariga mos keluvchi yangi mexanizmlarni ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Uchinchidan, bandlik ko'rsatkichlari yaxshilandi va ishsizlik darajasi 10,4% dan 7,9% ga pasaydi. Bandlik masalalarida ijobiy natijalarni saqlab qolish uchun aholini kasbiy qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini yanada kuchaytirish, tadbirkorlik subyektlariga qulay sharoitlar yaratish va yoshlar bandligini ta'minlash uchun maxsus dasturlarni amalga oshirish zarur.

To'rtinchidan, mahalliy byudjet ijrosi moliyaviy barqarorlikni ko'rsatdi va profisit ko'rsatkichi yildan yilga oshib borib, 5,26% ga yetdi. Ushbu moliyaviy barqarorlikni yanada mustahkamlash uchun byudjet xarajatlarini samarali boshqarish tizimini takomillashtirish, soliqqa tortish bazasini kengaytirish va mahalliy soliq mexanizmlarini optimallashtirish lozim.

Beshinchidan, logistika tizimidagi mavjud muammolar mahsulotlarning sifat buzilishlari va iqtisodiy-ijtimoiy zararlarni keltirib chiqarmoqda. Bu holatni bartaraf etish uchun zamonaviy "raqamli logistika" texnologiyalari, avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari, sovutkichli yetkazib berish zanjirlarini joriy qilish va logistika tizimini diversifikatsiya qilish tavsiya etiladi.

Shunday qilib, yuqorida taqdim etilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar asosida Namangan viloyatining hududiy iqtisodiy rivojlanishidagi mavjud yutuqlarni yanada mustahkamlash va rivojlantirish uchun tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni doimiy ravishda takomillashtirib borish talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. World Bank. Regional Development and Economic Integration Annual Report. – Washington D C, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 martdagi Hududlarning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi Farmoni.
3. Organisation for Economic Co operation and Development. OECD Regional Development Policy Recommendations. – Paris: OECD Publishing, 2022.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF 60 son Farmoni.
5. Krugman P. Geography and Trade. – Cambridge: MIT Press, 1991.
6. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1998.
7. Organisation for Economic Cooperation and Development. OECD Regional Development Policy Recommendations Enhancing Regional Competitiveness and Governance. – Paris: OECD Publishing, 2022.
8. United Nations Development Programme. Effective Governance for Sustainable Development Report on Global Practices. – New York: UNDP Publishing, 2021.
9. G'afurov M A. Hududiy iqtisodiy rivojlanish va boshqaruv tizimlarini takomillashtirish yo'llari. – Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2022.
10. Abduraxmonov Q X., Ismailov M. Iqtisodiyot va innovatsiyalar hududiy rivojlanishda zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2020.
11. Bobkov V., Tumanov S. Regional Economics Institutional and Economic Aspects. – Moskva: Russian Economic Press, 2019.
12. Lin J Y. Economic Development in China Lessons from Global Best Practices. – Princeton: Princeton University Press, 2017.
13. De Muro P., Tridico P. Local Development Theoretical and Empirical Approaches. – London: Palgrave Macmillan, 2016.